
“Islomda xalqaro munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari” nomli o’quv qo’llanma chop etildi

O’zR FA Davlat va huquq instituti bo’lim boshlig’i, professor Jo’raboy Toshqulovning “Islomda xalqaro munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari” nomli o’quv qo’llanmasi chop etildi.



Qo’llanma “Islom huquqshunosligi” o’quv dasturi asosida tayyorlangan. Unda islomda xalqaro

munosabatlar, ularni tartibga soluvchi huquqiy asoslarning shakllanishi va rivojlanishi, xalqaro huquq, islomda hududlar, elchilik va xalqaro shartnomalar, urush va tinchlik, asirlarga munosabat, boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar va dindan qaytganlarning huquqiy maqomi, harbiy o’ljalar, musulmon bo’lmagan aholidan undiriladigan soliqlar bilan bog’liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslari tahlil qilingan.

O’quv qo’llanma “Dinshunoslik”, “Xalqaro munosabatlar”, “Islom tarixi va manbashunosligi” ta’lim yo’nalishlari talabalari va “Fiqh” mutaxassisligi magistrlari hamda islom huquqiga qiziquvchilar uchun mo’ljallangan.